



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR .....	12
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'lishi VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA .....	34
<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
KARBOHOVIE KREDITI V AGRAHOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA .....	61
<b>Abdullaeva Zaynab Ruslanovna</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI .....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI .....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI .....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI .....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI .....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY .....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT .....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI .....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	118
<b>Rustamov Sheraz Oblokulovich</b>	
ISHLAB CHIQUARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBБ-DOUGLAS MODEL	
ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL .....	123
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQUINDILARNI KOMPLEKS	
BOSHQARISH .....	129
<b>Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
<b>Шафикова Луиза, Ойбек Камилов</b>	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА	
РОСТА .....	150
<b>Омонтурдиева Диёра</b>	
YER VA SUV RESURLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN	
FOYDALANISH.....	155
<b>Matkarimov Mansur</b>	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI .....	161
<b>Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi</b>	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА:	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	167
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA	
IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH .....	173
<b>Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li</b>	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING	
USTUVOR YO'NALISHLARI.....	179
<b>Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA	
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
<b>Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li</b>	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC	
LITERATURE REVIEW .....	192
<b>Ashurova Sitora Xusnitdin qizi</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	197
<b>Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов</b>	
JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR,	
ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
<b>Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li</b>	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING	
FOREIGN MARKETS.....	217
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi</b>	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH	
ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
<b>Rajabova Malika Nuriddin qizi</b>	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR	
VA YONDASHUVLAR .....	230
<b>Qosimova Gulyar Axmatovna</b>	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	239
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI .....	242
<b>Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna</b>	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARINING AHAMIYATI .....	248
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOIYILLARI .....	253
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI .....	263
<b>Karimov Eminjon Gapardjonovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI .....	270
<b>Shermatov Axror Abdixakimovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	275
<b>Ergash Bobobekov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	281
<b>Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	285
<b>Qurbonova Rahima Jamshedovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
<b>Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
<b>Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	302
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	306
<b>Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna</b>	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	312
<b>Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li</b>	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI .....	316
<b>Yusufova Laylo G'ayrat qizi</b>	





AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
<b>Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
<b>Норкулов Суннатбек Алишерович</b>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
<b>Vahidova Gulhayyo Arzi qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
<b>Raxmanova Ilmira Rustamovna</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
<b>Toxirov Javlon Raximovich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
<b>Arslonov U. U.</b>	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
<b>Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi</b>	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
<b>Saitqulov Suxrob Shavkatovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
<b>Komiljon Karimov</b>	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
<b>Karimova Xurshida Raximovna</b>	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
<b>Ли Марина Рудольфовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YER RESURLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
<b>Xoshimova Sevara Baxromovna</b>	
FARMATSEVTIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
<b>Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
<b>Turayev Baxtiyor Ergashevich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
<b>Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi</b>	





QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI .....	427
<b>Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li</b>	



## QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li**

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuchisi

Email: [Sohibjon.salimbayev@bk.ru](mailto:Sohibjon.salimbayev@bk.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamentining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni, davlat rahbari tomonidan yuklatilgan vazifalar hamda yuqori soliq yuklamasining moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Qo'riqlash departamentiga soliq imtiyozlari berish orqali uning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy qo'riqlash tizimlarini rivojlantirish va xavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'riqlash departamenti, moliyaviy barqarorlik, ichki moliyaviy nazorat, audit, soliq imtiyozlari, jamoat xavfsizligi, "Xavfsiz shahar", sun'iy intellekt, soliq yuklamasi.

**Abstract.** This article analyzes the role of the Security Department under the Ministry of Internal Affairs in ensuring public safety, the tasks assigned by the head of state, and the impact of the high tax burden on financial sustainability. The study also highlights issues related to strengthening the financial capacity of the Security Department through tax incentives, developing modern security systems, and improving security infrastructure.

**Key words:** Security Department, financial sustainability, internal financial control, audit, tax incentives, public safety, "Safe City", artificial intelligence, tax burden.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы роль Департамента охраны при Министерстве внутренних дел в обеспечении общественной безопасности, задачи, поставленные главой государства, а также влияние высокой налоговой нагрузки на финансовую устойчивость. Кроме того, освещены вопросы повышения финансовых возможностей Департамента охраны посредством предоставления налоговых льгот, развития современных систем охраны и совершенствования инфраструктуры безопасности.

**Ключевые слова:** Департамент охраны, финансовая устойчивость, внутренний финансовый контроль, аудит, налоговые льготы, общественная безопасность, «Безопасный город», искусственный интеллект, налоговая нагрузка.

### KIRISH

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash, davlat va xususiy obyektlarni ishonchli qo'riqlash hamda raqamli xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo'riqlash xizmati faoliyati bilan tanishuvi davomida sohani zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, texnik qo'riqlash qamrovini kengaytirish va xavfsiz muhitni kuchaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi<sup>1</sup>.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos jihati shundaki, Qo'riqlash departamenti va uning hududiy bo'linmalari budjet mablag'lari hisobidan emas, balki o'zining shartnoma asosida shakllanadigan tushumlari

1 <https://president.uz/oz/lists/view/8883>



hisobidan faoliyat yuritadi. Ushbu mablag'lar hisobidan ish haqi, ijtimoiy to'lovlar, transport va texnik ta'minot xarajatlari, moddiy resurslar, shuningdek davlat oldidagi soliq majburiyatlari qoplanadi.

Amalda yuqori soliq yuklamasi Qo'riqlash departamentining aylanma mablag'larini qisqartirib, moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa moddiy-texnik bazani yangilash, zamonaviy qo'riqlash texnologiyalarini joriy etish va xavfsizlik infratuzilmasini kengaytirish imkoniyatlarini kamaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy nazorat va audit orqali soliq yuklamasining daromad, xarajat va aylanma mablag'larga ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Qo'riqlash departamenti va uning hududiy bo'linmalari faoliyatida yuqori soliq yuklamasining daromadlar, xarajatlari va aylanma mablag'larga ta'sirini moliyaviy nazorat va audit nuqtai nazaridan tahlil qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda davlat xavfsizligi vazifalarini samarali amalga oshirish uchun soliq imtiyozlarini qo'llash zaruratini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'riqlash departamenti faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrda "Ichki ishlar organlarining qo'riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-360-son<sup>2</sup> qarori bilan belgilangan bo'lib, mazkur qarorga muvofiq Qo'riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti etib qayta tashkil etildi hamda davlat va xususiy obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo'riqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son<sup>3</sup> va 2025-yil 18-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-253-son<sup>4</sup> qarorlarida mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish va zamonaviy texnik qo'riqlash vositalarini keng joriy etish vazifalari belgilangan bo'lib, bu Qo'riqlash departamenti faoliyatining strategik davlat ahamiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Soliq kodeksining 483-moddasida<sup>5</sup> ayrim sohalar va sub'ektlar uchun vaqtinchalik soliq imtiyozlari nazarda tutilgan bo'lsa-da, Qo'riqlash departamenti amalda davlat xavfsizligi vazifalarini bajarayotganiga qaramasdan, umumiy tartibda QQS, foyda solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlarni to'lab kelmoqda.

Natijada tushum mablag'larining katta qismi soliq majburiyatlariga yo'naltirilib, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish va xizmat samaradorligini oshirish imkoniyatlaring cheklanishi yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan Qo'riqlash departamentiga soliq imtiyozlari berish masalasi ichki moliyaviy nazorat va audit nuqtai nazaridan muhim iqtisodiy mexanizm sifatida baholanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Qo'riqlash departamentiga soliq imtiyozlari berish masalasi soliq siyosati emas, balki davlat xavfsizligini ta'minlovchi tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ichki moliyaviy nazorat va auditning muhim iqtisodiy mexanizmi sifatida baholanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qo'riqlash xizmati faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan biri xizmat tariflarini shakllantirish mexanizmi bilan ham bog'liq hisoblanadi. Amaldagi tartibga ko'ra, Qo'riqlash xizmatlarining tariflari davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar uchun esa mustaqil ravishda belgilanadi.

Natijada tariflarda belgilangan mablag'larning muayyan qismi soliq majburiyatlarini qoplashga yo'naltirilib, xizmatning real moliyaviy resursi kamayib bormoqda.

Ayniqsa, yuqori inflyatsiya sharoitida avtotransport xarajatlari, yoqilg'i-moylash materiallari, aloqa xizmatlari, texnik qurilmalar, ehtiyot qismlar va ish haqi xarajatlari oshib borayotgan bo'lsa-da, amaldagi tariflar ayrim holatlarda ushbu xarajatlarni to'liq qoplash imkonini bermasligi mumkin. Bu esa hududiy Qo'riqlash xizmatlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichiga tizimli ravishda ta'sir ko'rsatmoqda.

2 <https://lex.uz/ru/docs/7865959>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>

4 <https://lex.uz/docs/7690026>

5 <https://lex.uz/docs/4674902>



Shu bilan birga, debitor qarzdorlikning yuqori darajada saqlanib qolishi ham mazkur muammoni yanada dolzarb qiladi. Chunki xizmat ko'rsatilgan bo'lsa-da, mablag'larning o'z vaqtida kelib tushmasligi natijasida Qo'riqlash xizmatlari bir vaqtning o'zida ham joriy xarajatlarni, ham davlat oldidagi soliq majburiyatlarini qoplashga to'g'ri kelmoqda.

Natijada xizmat tariflarida nazarda tutilgan mablag'larning katta qismi soliq to'lovlariga sarflanib, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, zamonaviy qo'riqlash texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kamaymoqda. Shu sababli Qo'riqlash departamenti va uning hududiy xizmatlari uchun maqsadli soliq imtiyozlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi.

Mazkur holatning amaliy ko'rinishi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi qo'riqlash xizmatini soliq yuklamasi tahlilida yanada yaqqol namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Toshkent shahar Qo'riqlash xizmatining 2024–2026-yillardagi asosiy soliq to'lovlari tahlili<sup>6</sup>

Soliq turi	2024-yil	2025-yil	2026-yil 1-may holatiga	jami
Daromad solig'i	38 869 580 918	44 925 893 516	14 600 000 000	98 395 474 434
Ijtimoiy soliq	27 200 000 000	53 398 316 246	12 500 000 000	93 098 316 246
Qo'shilgan qiymat solig'i	71 137 000 000	70 700 000 000	23 700 000 000	165 537 000 000
Mol-mulk solig'i	469 026 313	1 679 165 235	761 698 037	2 909 889 585
Yer solig'i	4 271 924 555	3 289 333 962	3 137 848 401	10 699 106 918
Foyda solig'i	1 550 162 403	3 580 000 000	4 300 891 839	9 431 054 242
Jami soliq yuklamasi	143 497 694 189	177 572 708 959	59 000 438 277	380 070 841 425

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahar Qo'riqlash xizmati tomonidan davlat budjetiga to'lanayotgan soliq to'lovlari miqdori yillar kesimida yuqori darajada shakllangan. Ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i eng yuqori ulushni tashkil etmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatishdan tushayotgan mablag'larning sezilarli qismi davlat budjetiga majburiy to'lov sifatida yo'naltirilayotganligini anglatadi.


Jadval tahliliga ko'ra, 2024–2026-yillar davomida Toshkent shahar Qo'riqlash xizmati tomonidan jami 380 mlrd so'mdan ortiq soliq to'lovlari amalga oshirilgan. Shundan asosiy qismini qo'shilgan qiymat solig'i, ijtimoiy soliq va daromad solig'i tashkil etmoqda. Bu holat Qo'riqlash xizmati moliyaviy resurslarining katta qismi davlat soliq majburiyatlarini qoplashga sarflanayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim fuqaro xonadonlari va yuridik tashkilotlar tomonidan xizmat haqlarining o'z vaqtida to'lanmasligi debitor qarzdorlikning ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa hududiy Qo'riqlash xizmatida aylanma mablag'lar tanqisligini keltirib chiqarib, soliq majburiyatlarini bajarish va joriy xarajatlarni moliyalashtirish jarayoniga qo'shimcha moliyaviy yuklama hosil qilmoqda.

Ushbu jarayonning Qo'riqlash departamenti moliyaviy barqarorligiga ta'sir mexanizmi ichki moliyaviy nazoart va audit nuqtai nazarida 1-rasmdagi sxemada keltirilgan (1-rasm).

6 Toshkent Shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmatining soliq ma'lumotlaridan olingan





1-rasm. Soliq yuklamasining Qo'riqlash Departamentining moliyaviy barqarorlikka ta'siri<sup>7</sup>

1-rasmda soliq yuklamasining yuqoriligi Qo'riqlash departamenti tizimida qanday moliyaviy va tashkiliy risklarni keltirib chiqarayotganligi bosqichma-bosqich ifodalangan. Undan ko'rinib turibdiki, yuqori soliq to'lovlari natijasida hududiy Qo'riqlash xizmatlarining aylanma mablag'lari qisqarib, joriy xarajatlarni moliyalashtirishda moliyaviy yetishmovchilik holatlari yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, moddiy-texnik bazani yangilash uchun yetarli mablag'larning shakllanmasligi maxsus avtotransport vositalari, videokuzatuv tizimlari, signalizatsiya qurilmalari hamda boshqa texnik vositalarni modernizatsiya qilish jarayonini sekinlashtirmoqda. Bu esa xizmat sifatining pasayishi va xavfsizlik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Rasmda keltirilganidek, debitor qarzdorlik bilan bog'liq xavflarning kuchayishi ham moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, fuqaro xonadonlari va tashkilotlar tomonidan xizmat haqlarining o'z vaqtida to'lanmasligi natijasida hududiy xizmatlarda likvid mablag'lar yetishmovchiligi yuzaga kelmoqda.

Bundan tashqari, yuqori soliq yuklamasi xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va rag'batlantirish imkoniyatlarini cheklab, mehnat samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, Prezident qarorlarida belgilangan xavfsizlik vazifalarini bajarish uchun zarur moliyaviy resurslarning yetarli darajada shakllanmasligi Qo'riqlash xizmati faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Shu sababli Qo'riqlash departamenti tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va yuqori soliq yuklamasini kamaytirish maqsadida soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu sababli Qo'riqlash departamenti tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va yuqori soliq yuklamasini kamaytirish maqsadida soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu taklifning iqtisodiy samarasi va moliyaviy ta'sir mexanizmi 2-rasmda tizimli ravishda ifodalangan (2-rasm).

7 mualif tomonidan ishlab chiqilgan



## 2-RASM. Qo'riqlash departamentiga soliq imtiyozlari qo'llanilganda kutiladigan iqtisodiy samara mexanizmi



2-rasm. Qo'riqlash departamentiga soliq imtiyozlari qo'llanilganda kutiladigan iqtisodiy samara mexanizmi<sup>8</sup>

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, QQS, foyda solig'i, mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berilishi natijasida hududiy Qo'riqlash xizmatlarida aylanma mablag'lar hajmi ortishi mumkin.

Ayniqsa, soliq yuklamasining kamayishi hisobidan bo'shaydigan moliyaviy resurslarni moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Xususan, maxsus avtotransport vositalari, videokuzatuv tizimlari, signalizatsiya qurilmalari, raqamli nazorat texnologiyalari hamda tezkor harakatlanuvchi guruhlar texnik ta'minotini yangilash imkoniyatlari kengayadi.

Rasmda aks ettirilganidek, soliq imtiyozlari "Xavfsiz shahar" va "Xavfsiz mahalla" loyihalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini ham oshiradi. Bu esa hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisod qilingan mablag'larning bir qismini xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, rag'batlantirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa xodimlarning xizmat samaradorligi va mas'uliyati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2-rasmda keltirilgan mexanizmdan ko'rinib turibdiki, soliq imtiyozlari natijasida Qo'riqlash xizmati moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, debitor qarzdorlik bilan bog'liq risklar kamayadi hamda xizmat sifati va samaradorligi oshadi. Natijada davlat rahbari tomonidan belgilangan jamoat xavfsizligini ta'minlash vazifalarini samarali amalga oshirish uchun zarur moliyaviy asos shakllanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qo'riqlash departamenti va uning hududiy Qo'riqlash xizmatlari o'z faoliyatini tarif asosida, davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan mustaqil tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadigan tushum mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda. Mazkur tushum mablag'laridan qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i va boshqa soliq majburiyatlarining qoplanishi Qo'riqlash xizmati moliyaviy resurslariga nisbatan qo'shimcha yuklamaga sabab bo'lmoqda. Natijada aylanma mablag'lar qisqarishi, debitor qarzdorlik oshishi, moddiy-texnik bazani yangilash imkoniyatlari cheklanishi hamda xizmat sifatining pasayish xavfi yuzaga kelishi mumkin.



Tadqiqotda ishlab chiqilgan sxema va tahlillar natijasida Soliq kodeksining 483-moddasiga Qo'riqlash departamenti va uning hududiy bo'linmalari uchun alohida imtiyoz normasini kiritish zarurligi asoslab berildi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, mol-mulk solig'i hamda yer solig'i bo'yicha ma'lum muddatga yoki maqsadli tartibda soliq imtiyozlari berilishi Qo'riqlash xizmatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunday imtiyozlar natijasida shakllanadigan qo'shimcha moliyaviy resurslarni moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, zamonaviy videokuzatuv va signalizatsiya tizimlarini joriy etish, maxsus avtotransport vositalarini yangilash, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish, hududiy bo'linmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi "Ichki ishlar organlarining qo'riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-360-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/7865959>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-253-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/7690026>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/4674902>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Prezident Shavkat Mirziyoevning Toshkent shahri ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi Qo'riqlash xizmati faoliyati bilan tanishuvi to'g'risidagi axborot, 27-yanvar 2026-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/8883>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>